



MARKAZIY OSIYODA O‘ZARO ISHONCH VA SHERIKLIK YANGI DARAJAGA KO‘TARILGANI JADAL O‘ZGARISHLARGA KUCHLI TURTKI BERMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun 4-5-avgust kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 5-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish

Emomali Rahmon, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Qasimaliyev, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning ushbu formatdagi raisligi doirasida birgalikda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot berdi. Xususan, yil boshida Raislik



Yil yakuniga qadar parlamentlararo forum, mudofaa, savdo va transport vazirlarining uchrashuvlari, madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

iqtisodiy kooperatsiyaning yangi drayverlarini ishga tushirish, chegaraoldi savdoni ko‘paytirish bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surish niyatida ekani ta‘kidlandi. Suv

Ozarbayjon bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Savdo, transport, “yashil” energetika sohalarida qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.



masalalariga bag‘ishlangan maxsus tadbirda ishtirok etdi.

Tadbirda Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti

Asadov, shuningdek, rasmiy delegatsiyalar a‘zolari va jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Toshkent shahrida bo‘lajak Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlikning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqildi.

konsepsiyasi va Qo‘shma tadbirlar rejasini qabul qilindi.

Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar rahbarlari, sanoat, energetika, suv xo‘jaligi va ekologiya vazirlarining uchrashuvlari, media va yoshlar forumlari o‘tkazildi.



Mintaqaviy sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish va uning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida uchrashuvning konseptual hujjatlarini tayyorlanmoqda.

Toshkent sammiti doirasida O‘zbekiston tomoni siyosiy muloqotni chuqurlashtirish,

va energetika sohalarida, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kengaytirish hamda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha amaliy hamkorlik masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Ozarbayjon tomonining uchrashuvlarda ishtirok etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugungi kunda mintaqada davlatlari

O‘zbekiston Prezidenti so‘zining yakunida Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan va kelishilgan yondashuvlari mintaqada taraqqiyot va farovonlik maqsadlariga erishishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING DENGIZGA CHIQISH YO‘LIGA EGA BO‘LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BO‘YICHA UCHINCHI KONFERENSIYASIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Turkmaniston Prezidenti hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga va Turkmaniston xalqining Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi hurmatli Gurbanguli Myalikgulyevich Berdimuhamedovga samimiy qabul va bugungi konferensiyani yuksak darajada tashkil etganlari uchun chin qalbidan minnatdorlik izhor etaman.

Ushbu forumning Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e‘lon qilingan Xalqaro tinchlik va ishonch yilida, Kaspiy mo‘jizasi — go‘zal Avazada o‘tkazilayotgani ramziy ma‘noga ega.

O‘zbekiston qardosh Turkmanistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, global va mintaqaviy barqarorlik hamda farovonlikni ta‘minlashga qaratil-

gan sa‘y-harakatlarini yuqori baholaydi va qat‘iy qo‘llab-quvvatlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish janoblariga dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarining muammolarini ustuvor xalqaro masala sifatida ilgari surishga shaxsan e‘tibor ko‘rsatib kelayotgani uchun alohida tashakkur bildiraman.

Biz Avaza siyosiy deklaratsiyasini

to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz va o‘n yillik Harakatlar dasturini amalga oshirishda faol ishtirok etamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar barchamiz uchun hayotiy muhim ahamiyatga egadir.

Ta‘kidlash kerakki, mamlakatimiz dengiz kommunikatsiyalariga faqat bir necha davlatlar hududi orqali chiqishi

mumkin. Biz uchun deyarli uch ming kilometr masofada joylashgan portlardan geografik olislik bir qator obyektiv muammolarni vujudga keltirmoqda. Bular — yuqori tariflar, transport yo‘laklari va infratuzilmalarning o‘tkazish imkoniyati cheklangani, shuningdek, boshqa davlatlarning bojxona-tranzit siyosatiga bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, transport xarajatlarining kattaligi va tranzit tizimining beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning ikki foizigacha yo‘qotmoqda. Logistika xarajatlari mahsulotlar umumiy narxida 60 foizigacha yetmoqda. Bu raqam jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan bir necha barobar yuqoridir.

Davomi 2-betda



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING DENGIZGA CHIQISH YO'LIGA EGA BO'LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BO'YICHA UCHINCHI KONFERENSIYASIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, ishonchli yangi tranzit yo'laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala — adolat masalasiga daxldordir. Bu — dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashdir.

Bu o'ta dolzarb vazifani hal etish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozim. Bular — barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarini bartaraf etish maqsadida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, global teng huquqlilikning muhim elementi bo'lgan rivojlanish huquqini ta'minlashdir.

Shu maqsadda O'zbekistonda so'nggi yillarda, xususiyl sektorini faol jalb etgan holda, zamonaviy transport-logistika tarmoqlarini barpo etish bo'yicha tizimli qadamlar tashlanganini alohida ta'kidlamogochimam.

Mamlakatimiz logistika ochiqligi va shaffofligi masalalarida yuqori dinamika ko'rsatmoqda. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlar, savdo tizimini liberallashtirish va investitsiya muhiti tubdan yaxshilanganini salmoqli natijalar bermoqda. Raqobatbardoshlik oshdi, innovatsion taraqqiyot tezlashdi.

Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch va sheriklik yangi darajaga ko'tarilgani esa jadal o'zgarishlarga kuchli turtki bermoqda.

Hozirgi kunda mintaqamizda yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi to'laonli tranzit xabiga aylantirish uchun dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda o'zaro savdo hajmi 4,5 marta, sarmoyalari esa ikki barobar o'sdi. Qo'shma korxonalar soni besh karra ko'paydi.

Joriy yilda hamkorlarimiz bilan birga "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishiga kirishdik. "O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya" transport yo'lagida yuk tashish hajmi sezilarli darajada o'sdi.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari! Bugun umumiy tahdid va muammolarni yengib o'tish bo'yicha aniq, amaliy va institutsional jihatdan ta'minlangan qarorlar o'ta muhimdir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston quyidagilarni taklif etadi.

Birinchidan, xalqaro transport yo'laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun muvofiqlashtirilgan harakatlar zarur.

Biz "O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston" temir yo'lini qurish loyihasini tayyorlash va amalga oshirishni tezlashtirish tarafdorimiz. Ushbu istiqbolli yo'lakni qurilayotgan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li magistrali bilan bog'lash keng mintaqamizda yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Biz, shuningdek, O'rta yo'lakni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Uni to'liq ishga tushirish uchun, birinchi navbatda, kelishilgan tranzit siyosati, tartibotlarni soddalashtirish va konteynerlarda yuk tashish uchun maqbul tariflarni joriy etish muhimdir.

Ikkinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to'g'risidagi global bitimni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Bunday mexanizm portlar va kommunikatsiyalardan adolatli foydalanish shartlarini ta'minlaydi, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytiradi, global logistikada tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun moslashuvchan investitsiya vositalariga talab tobora o'sib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sarmoyalari yiliga qariyb 40 milliard dollar deb baholanmoqda.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga ko'maklashish jamg'armasini ta'sis etishni taklif etamiz. Ushbu jamg'armaga donor mamlakatlar, xalqaro rivojlanish institutlari va global dasturlar resurslarini keng jalb etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari suramiz.

Bu mamlakatlarimizning tranzit borasida cheklangan imkoniyatlarini xolis ko'rib chiqish va mavjud sharoitlardan kelib chiqib, xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlashning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

Eng asosiysi — ushbu indeks mamlakatlarimizning raqobatbardoshligi va ishbilarmonlik muhitini adolatli baholashda hisobga olinishi kerak.

Beshinchidan, O'zbekistonda agrotarmoqni rivojlantirish uchun Innovatsion xabni yaratish bo'yicha taklifimizni amalga oshirish prinsipial ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Mazkur xab moslashuvchan agrotexnologiyalarni tatbiq etish, suvni tejash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid innovatsion loyihalarni ilgari surish, o'zaro bilim va tajriba almashishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, umumiy tahdidlarni birgalikda bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishga mamlakatlarimiz yetakchi ekspertlari va "aql markazlari"ni faol jalb etish muhim.

Bu borada xalqaro anjuman va davra suhbatlari o'tkazishni taklif qilamiz. Bunday tadbirlar kun tartibiga global ishlab chiqarish zanjirlariga mamlakatlarimizning chuqur integratsiyasini ta'minlash, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, transchegaraviy investitsiyalarni kengaytirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash masalalarini kiritish mumkin.

O'zbekiston, shuningdek, dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun Xalqaro tahlil markazi faoliyatiga qo'shilish niyatida.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Global bozorlarga chiqish barcha uchun teng bo'lishi kerak. Bu — nafaqat iqtisodiy zarurat, balki birinchi galda, barqaror rivojlanishning muhim omili, xalqaro munosabatlarda ishonch va hamkorlik shartidir.

O'zbekiston global taraqqiyotning yanada adolatli arxitekturasini shakllantirish borasida konstruktiv va uzoq muddatli sheriklikka doim ochiq va tayyor ekanini sizlarga yana bir bor bildirmogochimam.

Boshlanishi 1-betda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiya doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun" ordenini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va qardosh turkman xalqiga yuksak davlat mukofoti uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Ushbu mukofotni O'zbekiston va uning ko'p millatli xalqiga alohida e'tibor va hurmat, Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, yaxshi qo'shinchilik, o'zaro ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi umumiy sa'y-harakatlarimizning e'tirofi sifatida qabul qilaman, — dedi davlatimiz rahbari.

Boy tarixiy tajriba, qardoshlik va o'zaro hurmat an'analriga asoslangan O'zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Keyingi yillarda muhim iqtisodiy va gumanitar loyihalar amalga oshirildi, o'zaro savdo hajmi va kooperatsiya ko'lamini keskin oshdi.

O'zbekiston yetakchisi Arqadag' va mintaqaning barcha davlatlari rahbarlari Markaziy Osiyoda hamkorlikni ilgari surishga ulkan hissa qo'shayotganini alohida qayd etdi. Bugun butun xalqaro hamjamiyat mintaqaviy sheriklik va o'zlikning yangi modelini barpo etishdagi umumiy muvaffaqiyatlarimizni e'tirof etayotgani ta'kidlandi.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari yuksak mukofot uchun yana bir bor minnatdorlik bildirib, qardosh turkman xalqini shu kunlarda o'tayotgan BMT konferensiyasi bilan tabrikkladi hamda joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida Xalqaro tinchlik va ishonch yili doirasidagi global sammit muvaffaqiyatli o'tishini tiladi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahridagi "Avaza" milliy turizm hududida o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etdi.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o'tgan tadbirda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, boshqa qator davlat va hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, iqlim o'zgarishi va ekologik tahdidlarga bardoshlilikni oshirish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida Turkmanistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, global va mintaqaviy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuksak baholadi.

Konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar hayotiy muhim ahamiyatga ega ekanini, chunki dengiz portlaridan jo'g'rofiy uzoqlik va bir necha mamlakat hududlarini kesib o'tish zarurati bir qator obyektiv muammolarni keltirib chiqarayotganini ta'kidladi.

Tariflarning yuqoriligi, transport yo'laklari va infratuzilmasining cheklanganligi, boshqa mamlakatlarning bojxona-tranzit siyosatiga qaralik shular jumlasidan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, katta transport xarajatlari va tranzitning beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning 2 foizigacha yo'qotmoqda.

Logistika xarajatlari tovarlar qiymatining 60 foizigacha qismini tashkil etadi, bu esa jahondagi o'rta ko'rsatkichdan bir necha barobar yuqoridir.

Shu munosabat bilan yangi ishonchli tranzit yo'laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy

MARKAZIY OSIYODA O'ZARO ISHONCH VA SHERIKLIK YANGI DARAJAGA KO'TARILGANI JADAL O'ZGARISHLARGA KUCHLI TURTKI BERMOQDA

Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylanmoqda.

— Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala — adolat masalasiga daxldordir. Bu — dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashdir, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Shu bilan birga, ushbu dolzarb muammoni hal qilish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozim.

Bular barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarining oldini olish maqsadida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish va global teng huquqlilikning asosiy elementi bo'lgan rivojlanish huquqini ta'minlashdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xususiy sektorni faol jalb qilgan holda zamonaviy transport-logistika tarmog'ini shakllantirish bo'yicha tizimli qadamlar qo'yildi. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilayotgan tarkibiy iqtisodiy islohotlar, savdo tizimini liberallashtirish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash sezilarli natijalar bermoqda: raqobatbardoshlik oshdi, innovatsion rivojlanish jadallashdi.

— Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch va sheriklik yangi darajaga ko'tarilgani esa jadal o'zgarishlarga kuchli turtki bermoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Bugun mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi to'laonli tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 4,5 barobar ko'paydi. Investitsiyalar ikki barobar, qo'shma korxonalar soni besh barobar ko'paydi.

Joriy yilda hamkorlar bilan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishi boshlandi, "O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya" transport yo'lagi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatlarning umumiy tahdid va muammolarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, xalqaro transport yo'laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun o'zaro muvofiqlashgan harakatlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, "O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston" temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish va uni qurilayotgan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li magistrali bilan tutashtirish muhimligi ta'kidlandi.

— Bu keng mintaqamizda yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Davlatimiz rahbari O'rta yo'lak salohiyatini, eng avvalo, o'zaro kelishilgan tranzit siyosatini yuritish, qoidalarini unifikatsiya qilish va konteyner tashuvlari uchun maqbul tariflarni joriy etish orqali to'liq ishga solishga chaqirdi.

O'zbekiston Prezidenti, shuningdek, BMT shafeligida dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to'g'risidagi global bitimni ishlab chiqishni taklif qildi.

Hujjat portlar va kommunikatsiyalardan adolatli foydalanish shartlarini ta'minlash, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytirish, global logistikada tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan.

Yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun moslashuvchan investitsiya vositalariga talab ortib borayotganini hisobga olib, davlatimiz rahbari BMT shafeligida Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlarining logistika integratsiyasiga ko'maklashish jamg'armasini tuzish tashabbusini ilgari surdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport infratuzilmasi uchun investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji yiliga qariyb 40 milliard dollarga baholanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston rahbari tranzit imkoniyatlarining cheklanishini xolisona aniqlash, xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni real sharoitlarni hisobga olgan holda samarali

taqsimlash maqsadida dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirish bo'yicha Innovatsion xabni tashkil etish taklifini amalga oshirish muhimligiga e'tibor qaratildi. Bu moslashuvchan agrotexnologiyalarni joriy etish, suvni tejash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha innovatsion loyihalarni ilgari surish, bilim va tajriba almashishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti yetakchi ekspertlar va "aql markazlari"ni umumiy tahdidlarni yengib o'tish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga faol jalb qilish, shu jumladan, xalqaro anjuman va davra suhbatlari o'tkazish muhimligini qayd etdi.

Bunday tadbirlar kun tartibiga global ishlab chiqarish zanjirlariga mamlakatlarimizning chuqur integratsiyasini ta'minlash, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, transchegaraviy investitsiyalarni kengaytirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash masalalarini kiritish mumkin, — dedi Prezident.

Shuningdek, O'zbekiston dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun Xalqaro tahlil markazi faoliyatiga qo'shilish niyatida ekanini ma'lum qilindi.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari mamlakatimiz global taraqqiyotning yanada adolatli arxitekturasini shakllantirish bo'yicha konstruktiv va uzoq muddatli sheriklikka tayyor ekanini tasdiqladi.

Konferensiya yakunida Avaza siyosiy deklaratsiyasi qabul qilindi. BMTning Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha konferensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Global va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb masalalari, shu jumladan, BMT Bosh Assambleyasining bo'lajak 80-yubiley sessiyasini o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Shu ma'noda, O'zbekiston yetakchisi Bosh kotibning xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, BMT va uning asosiy institutlarini zamonaviy voqelikka moslashtirish maqsadida isloq qilish borasidagi tashabbuslarini qat'iy qo'llab-quvvatlatdi.

O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, Antoniu Guterrishning o'tgan yil iyul oyidagi mamlakatimizga tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda 160 ta qo'shma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

So'nggi bir necha yilda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Joriy yilda Tashkilotning asosiy tuzilmalari va institutlari, jumladan, BMT-Xabitat va UNICEF rahbarlari O'zbekistonga tashrif buyirdi, Toshkentda "BMT-Ayollar" tuzilmasining vakolatxonasi ochildi.

Davlat xizmati masalalari bo'yicha forum birgalikda o'tkazildi. Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmogda.

Mamlakatimiz Global barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi bo'yicha eng ilg'or beshtas davlat qatoriga kirdi. BIRMAga erishish nuqtayi nazaridan BMT bilan hamkorlik bo'yicha yangi besh yillik dastur imzolalanishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish, Afg'onistonni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida tomonlar amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish, qo'shma dastur va loyihalarni kengaytirishga tayyor ekanini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga amaliy tashrifi doirasida Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidzeni qabul qildi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Gruziya Bosh vazirining joriy yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi davomida

erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol idoralararo aloqalar davom etmoqda, tashqi ishlar va iqtisodiyot vazirlarining uchrashuvlari o'tkazildi. Tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi, qo'shma loyiha va korxonalar soni oshmoqda.

O'zaro tovar yetkazib berishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat tarmoqlarida, shuningdek, logistika sohasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish muhimligi qayd etildi.

O'zaro tovar yetkazib berishni ko'paytirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi. Avazada o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadovning uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi.

Eng avvalo, energetika, transport va logistika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Amaliy hamkorlikning istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish uchun mazkur formatdagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Serdar Berdimuhamedovni Xalqaro tinchlik va ishonch yilida BMTning global konferensiyasi yuqori saviyada o'tkazilgani bilan samimiy qutlab, Turkmanistonning yuksak davlat mukofoti — "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun" ordeni bilan taqdirlangan uchun minnatdorlik bildirdi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik doirasida O'zbekiston — Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shinchilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro tovar ayirboshlash izchil orbit borayotgani, sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida kooperatsiya kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Faol hududlararo va gumanitar almashinuvlar davom etmoqda.

Joriy yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan hukumatlararo komissiyalar yig'ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi va qator madaniy tadbirlar natijadorligini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi, oliy darajadagi uchrashuvlar rejai ko'rib chiqildi.

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha konferensiyasi doirasida davlat rahbarlari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon milliy kunlariga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etdilar.

Milliy kunlar mintaga xalqlarining boy madaniy merosini, mustahkamlanayotgan qo'shinchilik aloqalarini va kengayib borayotgan madaniy-gumanitar hamkorligini namoyish etish maqsadida yunushtirildi.

Buyerda an'analard va hunarmandchilikka bag'ishlangan, madaniyat, san'at va turizm sohalaridagi zamonaviy yutuqlar aks etgan milliy pavilyonlar ochilgan. Shuningdek, milliy taomlar ko'rgazmasi va pazandachilik bo'yicha mahorat darslari tashkil etilgan.

An'anaviy o'zbek hovlisi ko'rinishida qurilgan O'zbekiston pavilyoni tashrif buyuruvchilarda yorqin taassurot qoldirdi. Tadbir mintaqaviy o'ziga xoslik va madaniy rang-baranglikning navbatdagi namunasi sifatida o'zaro anglashuvni mustahkamlashga hamda Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoni sifatida namoyon etishga xizmat qildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

Mamlakatimizda so‘nggi ikki oy mobaynida Bo‘stonliq tumanining Chorvoq suv ombori hududida qurilishi mo‘ljallangan “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi keng muhokama qilinmoqda. Bu ijobiy holat. Chunki avvallari keng ko‘lamli loyihalar va umuman, katta-kichik ishlar hech qanday muhokamalarsiz, shovqin-suronsiz, imi-jimida salqin kabinetlarda tezda tasdiqlanib ketardi.



Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Xullas, bu safar mega loyiha Chorvoqning ekologik holatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi borasida turli fikrlar, e‘tiroz va xavotirlar bildirildi. Loyiha doirasidagi infratuzilma obyektlaridan chiqadigan oqova suv Chorvoq suv omboriga tashlanishidan xavotir bildirilmoqda. Bu esa Toshkent shahrining uch milliondan ortiq aholisi va tabiatiga asosiy ichimlik suv yetkazib beruvchi Chorvoq uchun katta tahdid sifatida ko‘rilmoqda.

Rasmiylar loyiha alohida nazorat ostida bo‘lishi, ekologik xavfsizlik esa doimiy nazorat qilinishi haqida bayonotlar berdi. Ammo bular faqat og‘zaki va‘da sifatida qabul qilindi, jamiyat, ayniqsa, tanqidiy qaraydigan qatlam bu gaplarga ishonmadi.

Shu kunlarda bu borada tub burilish yuz berdi — 1-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Sea breeze Uzbekistan” umummavsumiy kurort majmuasini barpo etish bo‘yicha yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.

Hujjat bilan loyihaning ekologik talablarga qat‘iy rioya qilinishi shart etib belgilandi. Xususan, chiqindi va oqova suvlarning Chorvoq suv ombori hamda Chirchiq daryosiga tashlanishi to‘liq taqiqlandi. Agar investor ushbu talablarni buzsa, loyiha to‘xtatiladi va yer ijarasi bekor qilinadi. Ya‘ni ekologik talablar bajarilmasa, loyiha ham bo‘lmaydi.

Bu esa investorga juda aniq signal beradi: ekologik xavfsizlik muhokama qilinmaydi.

Bundan ham muhimrog‘i, qaror Chorvoq hududida faoliyat yuritayotgan barcha subyektlarga tegishli talablarni qo‘ymoqda (o‘tgan yili Chorvoq suv ombori hududi 12 millionga yaqin sayyohni qabul qilgan). Bu yerda yuzlab dam olish maskanlari, mehmonxonalar, pansionatlar va dala hovilari haqida so‘z ketyapti — ularning ba‘zilari hatto sobiq ittifoq davrida qurilgan. O‘ylaymanki, ularning hammasi emas, lekin anchagina qismi shu vaqtda qadar ekologik talablarga rioya qilmagan va hozir ham oqova suvlarni bevosita Chorvoq yoki uni oziqlantiruvchi daryolarga tashlaydi. Bu, afsuski, achchiq haqiqat!

Mana shu juda og‘ir holatdan kelib chiqib aytishim mumkinki, hujjatda belgilangan quyidagi jihatlar alohida e‘tirofga loyiq:

“Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda suvni muhofaza qilish zonalari va sanitariya hududlariga oid talablarga rioya etilishini ta‘minlashi, muhofaza etiladigan tabiiy obyektlar, suvni muhofaza qilish va sanitariya zonalarida qurilish ishlari olib borilishiga yo‘l qo‘ymasligi, suv omboriga oqova suvlar tashlanishini qat‘iy nazoratga olishi shart”.

Shuningdek, Bosh prokuratura bilan birgalikda mazkur vazirliklarga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

— Chorvoq suv ombori va uning muhofaza hududiga maishiy va sanoat chiqindilari, oqova suvlar tashlanishining oldini olish uchun doimiy va har tomonlama nazorat o‘rnatish;

— atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish, sanitariya-ekologik me‘yoriarga rioya



qilinishini ta‘minlash va sog‘lom ekologik muhitni saqlab qolish choralarini ko‘rish;

— barcha qurilgan obyektlar, jumladan, yangi qurilishlar bo‘yicha inventarizatsiya o‘tkazish, ekologik normalarni buzayotgan obyektlarni bartaraf etish va mas‘ul shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rish.

“Sea Breeze Uzbekistan” loyihasiga qaytadigan bo‘lsak, investor tomonidan qurilishning belgilangan muddati buzilgan taqdirda ham yer ijarasi hech qanday kompensatsiyasiz bekor qilinadi. Bu esa investor uchun qiziqishni o‘z vaqtida yakunlashiga ochiq va aniq ishoradir.

Shuni tushunishimiz kerakki, ekologik talablar to‘liq bajarilgan holda bu loyiha minglab yangi ish o‘rinlari, milliardlar investitsiyalar va qurilish hamda turizm sohalarida zamonaviy texnologiyalarni jalb etish imkonini beradi.

Nuqtai nazar

ayanchli, uyatli manzaralar shuncha kamrog‘ bo‘ladi.

Xulosa o‘rvida e‘tiboringizni boshqa jihatga qaratmoqchiman: “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi atrofidagi biz ijtimoiy tarmoqlarda kuzatgan keng muhokamalar yaxshi. Bu fuqarolik jamiyatimiz ulg‘ayayotganining yaqqol belgisi. Bu Chorvoqning kelajagi hammamiz uchun muhimligini ko‘rsatadi. Hukumat jamoatchilik fikriga quloq tutib, loyihani tartibga soluvchi rasmiy hujjatga kerakli bandlarni kiritgani ham olqishga loyiq.

Ammo siyosatshunos mutaxassis va axboriy xurujlar kelib chiqishi tahlilchisi sifatida aytmog‘chimanki, hushyor va e‘tiborli bo‘lishimiz kerak. Negaki ekologiyani himoya qilish niqobi ostida qator manipulyativ postlar ham paydo bo‘ldi.

YAKDIL JAMIYAT, BIR BUTUN VATAN BO‘LISHNING IQTISODIY FORMULASI



Zebuniso ALIMARDONOVA,
Demokratik jarayonlarni tahlil
qilish markazi Surxondaryo
viloyati hududiy bo‘linmasi
rahbari

Taxiatosh tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha puxta ishlab chiqilgan reja asosida viloyat hokimligi, boshqarma, idora va tashkilot rahbarlari tomonidan tizimli ishlar qilinmoqda. Bu esa Taxiatosh tumanida keng ko‘lamli bunyodkorlik va yangilanishlar davrini boshlab berdi.

Surxondaryo viloyatining Taxiatosh tumaniga kiritgan investitsiyalari tuman iqtisodiyotini mustahkamlash va aholi bandligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Jami 30 milliard so‘m evaziga qator muhim iqtisodiyot obyektlari ishga tushirildi. Yangi imkoniyatlar yaratildi.

Xususan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yangicha yondashuvlar asosida tumandagi 30 ta xonadonga 2 milliard so‘mga ixcham issixoxonalar qurib berildi. Bu, ayniqsa, kichik yer uchastkalarida yuqori hosildorlikka erishish, oilaviy byudjetni mustahkamlash va aholining

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilayotir. Viloyatlarning Qoraqalpog‘iston tumanlariga biriktirilishi bu e‘tiborning yorqin amaliy ifodasidir. Ushbu tashabbus hududlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro ko‘mak ko‘priklarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunday aloqalarning eng namunali misollaridan biri Surxondaryo viloyatining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiotosh tumaniga biriktirilishidir.

O‘zaro hamkorlik



qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ehtiyojini qondirishda muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, 50 ta xonadonga tikuv mashinalari va 20 ta xonadonga 500 tadan jo‘ja ochildiruvchi ega inkubatorlar yetkazib berildi. Bu aholining tadbirkorlik faoliyatini kengaytirib, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Naymanko‘l” OFYda qiymati 1,5 milliard so‘mlik loyiha asosida jundan gillam to‘qish sexi tashkil etildi. Bu sex nafaqat mahalliy aholining milliy hunarmandlik

an‘analarni qayta tiklashga xizmat qiladi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ayollar bandligini ta‘minlashga ham katta hissa qo‘shadi.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan 2024-2025-yillar investitsiya dasturi doirasida “Surkhon Sandwich” korxonasi tomonidan Taxiatoshda loyiha qiymati 7,4 milliard so‘mlik tikuv-trikotaj fabrikasi qurilib, 200 ta ish o‘rni yaratildi. Bu ham tuman iqtisodiy salohiyatini kengaytirib, eksportkor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga, muhimi, yuzlab yoshlarni doimiy ish bilan ta‘minlashga hissa qo‘shmoqda.

“Naymanko‘l” OFYda loyiha qiymati 1,6 milliard so‘m bo‘lgan 50 o‘rinli nuroniylar choyxonasi qurildi va ishga tushirildi. Bu maskan keksa avlod vakillari uchun madaniy hordiq chiqarish, suhbatlashish va turli tadbirlar o‘tkazish uchun qulay sharoit bo‘ldi.

Yoshlar uchun zamonaviy qulayliklar yaratish maqsadida “Obod makon” OFYda loyiha qiymati 2,2 milliard so‘mlik “Yoshlar bog‘i”ni ta‘mirlash va amfiteatr qurish ishlari bajarilib, foydalanishga topshirildi. Bu zamonaviy bog‘ va amfiteatr yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, turli festivallar, konsertlar va madaniy tadbirlar o‘tkazish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Qiymati 1,4 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida “Taxiatosh” va “Qushchilik” MFY ma‘muriy binolari qurib bitkazildi. 1,1 milliard so‘mga “Naymanko‘l” OFY va tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi binosi ta‘mirlandi.

Aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan sa‘y-harakatlar doirasidagi ishlar ham kishini quvontiradi. Jumladan, og‘ir sharoitdagi 558 ta xonadonning tom qismi ta‘mirlandi va avariya holatidagi 4 ta turar joy qayta qurildi.

Hamkorlikdagi ishlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida ham davom etmoqda. Yer resurslaridan unumli foydalanish maqsadida 400 million so‘mlik investitsiya kiritildi. Natijada 100 gektar yer qishloq xo‘jaligi foydalanuviga qaytarildi. 12,3 kilometr zovur tozalani, 19 kilometr yangi ariq qazildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun aholi vakillariga 25 ta kompyuter, 68 ta tikuv mashinasi, 20 ta payvandlash va qurilish uskunasi, 13 ta inkubator va 5 ta go‘zallik saloniga anjomlar yetkazib berildi. Bu uskunalar ularga o‘zini o‘zi band qilish, kichik biznesni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Taxiatoshda kelgusida pillachilik va bog‘dorchilikni rivojlantirish uchun surxondaryoliklar 7 ming tup tut ko‘chati hamda 10 ming tup mevali va manzarali ko‘chat ekdi. Bu ko‘chatlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik masalalar uchun ham yaxshi yechimdir.

Surxondaryo va Taxiatosh o‘rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy va ijtimoiy loyihalar bilan cheklanib qolgan yo‘q. Madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-amaliy yo‘nalishlarda ham hamkorlik mustahkamlanib bormoqda. Ikki hudud o‘rtasidagi o‘zaro tajriba almashish, bilim va ko‘nikmalarni bo‘lishish muntazamlik kasb etgan. Madaniyat va san‘at namoyandalarning o‘zaro tashriflari, sport musobaqalari o‘tkazilish yoshlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlamoqda. Soha mutaxassslarining o‘zaro hamkorligi esa innovatsion g‘oyalari va loyihalar paydo bo‘lishiga zamin yaratyapti. Bu kabi tadbirlar xalqimizning birdamlik va o‘zaro hurmat ruhini oshirib, umumiy taraqqiyotga xizmat qilyapti.

Surxondaryo viloyatining Taxiatosh tumaniga ko‘maga bir viloyatning boshqa tumaniga yordami emas, balki yangi O‘zbekistonning har bir fuqarosi uchun munosib hayot sharoitini yaratishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Ushbu tashabbus nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlaydi, balki insonlar qalbida ertangi kunga ishonchni, yashashga va bunyodkorlikka ishtiyoqni oshiradi.

Ushbu hamkorlik tufayli Taxiatoshda yangi hayot nafasi ufurmoqda. Amalga oshirilgan loyihalar tuman qiyofasini tubdan o‘zgartirib, uning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirmoqda.

Minnatdorlik

XALQIMIZ VA MADANIYATIMIZGA KO‘RSATILGAN KATTA EHTIROM

Yaqinda yurtimizda milliy madaniyatimiz va san‘atimiz rivojiga oid muhim qaror qabul qilindi — O‘zbekiston xalq artisti, Sharq musiqa san‘atining betakror namoyandasi Sherali Jo‘rayev nomidagi oliy musiqa maktabi tashkil etiladigan bo‘ldi.

Bu qaror nafaqat Jo‘rayevlar oilasi, balki millionlab muxlislar, san‘at ahli va butun xalqimiz tomonidan ulkan shodlik va iftixor bilan qabul qilindi.

Sherali Jo‘rayev o‘z ijodi, yuksak qobiliyati va xalqchilligi orqali yurtimiz musiqa merosini asrab-avaylash, yangi avlodlarga yetkazish, uni rivojlantirish yo‘lida butun umrini sarf etdi. Uning eng katta orzusi milliy musiqa an‘analarni saqlab qolish va uning haqiqiy vorislarini tarbiyalash edi. Qabul qilingan bu tarixiy qaror ana shu orzularning amalga oshishi, uning muqaddas nomini abadiylashtirish yo‘lidagi ezgu qadam bo‘ldi.

Biz, Jo‘rayevlar oilasi nomidan mazkur qaror uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiramiz. Bu qaror nafaqat oilamiz, balki Sherali Jo‘rayevning muhabbatli yuragi urib turgan xalq uchun ham yuksak ma‘naviy hadyadir.

Sherali Jo‘rayev XX asming ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi o‘zbek musiqa san‘atining eng yorqin va muhtasham yulduzlaridan biri. Uning ijodi xalq dardi, milliy ruh va ilohiy muhabbat bilan sug‘orilgan bo‘lib, har bir qo‘shig‘i qalblarga chuqur ta‘sir etadi.

Ustoz Jo‘rayev nafaqat xonanda, balki shoir, bastakor va haqiqiy ziyoli sifatida ham yurtga xizmat qildi. U mingdan ortiq qo‘shiq va tarona muallifidir. U ijod qilgan “O‘zbekim”, “Inson o‘zing”, “O‘xshamas”, “O‘xshating”, “Birinch muhabbatim” kabi qo‘shiqlar millionlab yuraklarga yo‘l topgan.

Sherali Jo‘rayev ijodida tarixiy xotira, vatanparvarlik, inson sha‘ni va milliy g‘urur ustuvor o‘rin tutadi. Uning kuylarida Farg‘ona-Sug‘d vodiysining shodiyona maqomlari, Termiz sahrolarining nolayu saslari, Buxoro va Samarqandning musiqiy an‘analari o‘z ifodasini topgan.

Uning ijrosi o‘ta mukammalligining sababi ham ehtimol sha‘riyat dunyosining Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sa‘diy Sheroziy, Hofiz, Jaloliddin Rumi, Ogahiy, Mashrab, Rasul Hamzatov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi gultojlari ijodidan tarkib topgani bilan ham bog‘liqdir. Ayni paytda bu betakror va umrbog‘iy qo‘shiqlar nodir ovoq, eng asosiy, o‘z Vatani, xalqi, muxlislariga mehr-muhabbatdan, teran e‘tiqoddan ildiz olgani rost.

Prezidentimizning ijodkor ziyoli ahli borki, bariga ayrica chin e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelayotganiga guvohmiz.

Davlatimiz rahbari noyob iste‘dodi, ko‘p yillik samarali va betakror ijodi bilan o‘zbek qo‘shiqchilik san‘atini va milliy madaniyatimizni rivojlantirish, uning shon-shuhratini dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib etishga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayevni 2018-yilda “Fidokorona xizmatlari uchun”, 2022-yilda esa tavalludining 75 yilligi munosabati bilan “El-yurt hurmati” ordenlari bilan mukofotladi.

Vaziyatga rasmiy izoh berilishidan ancha oldin bu postlarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi qardoshlik va suverenitetimizga putur yetkazishga qaratilgan chaqiriqlar yangradi. Qiziq tomoni, bundan 3-4 yil avval Chorvoqni alohida muhofazadagi tabiiy hudud deb e‘lon qilish taklifi chiqqanida, aynan shu manipulyatorlar “endi qayerda cho‘milamiz”, deya baqir-chaqir boshlagan edi.

Shuni anglab yetishimiz kerakki, bugungi kunda xalqning noroziligidan foydalanib, jamiyatimizning muayyan qatlamidagi nos-talgik kayfiyatlardan foydalanigan holda o‘z buzg‘unchi muammolarini ilgari surayotgan “uchinchi kuchlar” ko‘payib bormoqda. Bunday manipulyatsiyalarni faqat “Sea Breeze Uzbekistan” holatida emas, boshqa masalalarda ham tez-tez uchratyapmiz. Bunga qarshi yetuk fuqarolik jamiyati sifatida qat‘iy munosabat bildirishimiz va bunga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. Biz axborot hujumlari va bu masalalarda sodda insonlar bilan manipulyatsiya qilish istagi ortidan kimlarning quloqlari chiqib turganini aniq ko‘ra bilishimiz kerak.

Ana shu o‘y-xayollar bilan o‘zimcha o‘yladim:

— nahotki eng yuqorida o‘zimizga qarshi qaror qabul qilinsa?;

— nahotki ikki qardosh millat birlashib bir yaxshi ish qilsa-yu, biz halitdan unga qarshi bo‘lsak?;

— nahotki biz butun umr Turkiya, Maldiv orollari, Seyshel, Vyetnamlarga havas qilsak-da, o‘zimizda o‘zimizga bo‘lishini ravo ko‘rmamak, hamon yovvoyi ibtidoiy uslubda eskicha dam olishni qo‘msasak?;

— nahotki biz bugun XXI asrda XVIII asrdagidek yangilik va zamonaviylikdan qo‘rqib yashasak?;

— nahotki ochiq ko‘zlarimiz shu loyihaga xalqni qarshi gij-gijlatayotgan “buyuk mutaxassislar” populist va marginal ekanini ko‘rmayapti? Axir “uchinchi taralar” manfaati-ku bu!

Hamkasblarimga savol: nahotki kimdir yo qandaydir kuch cho‘ntagidagi 5-10 dollar puli bilan bizning jamiyatni shunday axboriy to‘fonga duchor qila oladi? Biz nimaga kerakimiz unda? Yo zamona shu ekan, blogger va inflyuenserlar ishi bu deb pisib o‘tiraveramizmi kundan kunga o‘zimizni yo‘qotib? Qaysi birimiz tahriyratdagi salqin xonadan chiqib, Chorvoqda yashaydigan aholi, xolis ekologlar, prokuratura xodimlari bilan suhbatlashdik?

Demokratik va fuqarolik jamiyati qurish, Cherchill aytganidek, oson ish emas, ammo muhimi, biz shu yo‘lni boshqalardan kechroq bo‘lsa-da, bosib o‘tuyapmiz.

Fikrim va “nahotkilarim” boshqalarnikidan diametral farqanishi mumkin, kimdadir yoqmas, ammo bu mening qarashim.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!**



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!**



Bu yuksak iste‘dod sohibi bilan birga uning shinavandalari uchun ham alohida e‘tibor, e‘tirof, sharaf demakdir.

Hofizimiz nafaqat o‘tgan asr san‘atida, balki kelajak musiqa avlodlari uchun ham yo‘l ko‘rsatuvchi qutb yulduzidir. Uning ijodi milliy o‘zlikni his etish, ma‘naviy boyish va qalb pokligini asrashda bardavom manba bo‘lib qolaveradi.

Sherali Jo‘rayev nomi bilan ataladigan ushbu maktab kelajakda san‘atimizning yangi yulduzlarini tarbiyalaydi, milliy musiqa an‘analarni zamonaviy ruhda davom ettiradi va Vatanimiz madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi deb ishonamiz.

Prezidentimizning ushbu qarori biz, Jo‘rayevlar oilasiga ham jiddiy mas‘uliyat yuklaydi. Shu bois, farzandlarim Shohjahon va Zohirshoh Jo‘rayevlar ulug‘ san‘atkorim munosib vorislari va izdoshlari hamda professional xonandalar sifatida mazkur qaror ijrosini har tomonlama sifatli ta‘minlash uchun bor kuch-g‘ayratlari hamda bilim va tajribalarini sarflashga tayyor. Farzandlarim ham otasi kabi o‘z Vataniaga sadoqat bilan xizmat qiladi.

Barcha ziyolilar, ustozlar va san‘at ixlosmandlarini mazkur oliygohni qo‘llab-quvvatlashga, uning faoliyatida faol ishtirok etishga chorlaymiz. Sherali Jo‘rayevning ruhi shod, nomi sharaflil, asarlari esa har bir qalbda abadiy yashayversin!

Gulnora JO‘RAYEVA,
Sherali Jo‘rayevning rafiqasi



Qaror va ijro

4

2025-yil 6-avgust, 159-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

NIGOH

YANGI

O'ZBEKISTON

Bekorchilik ortda qoldi

Yoshlik beboshlik, deya bejiz aytilmagan. Abror (ismi o'zgartirilgan) ham o'zi bilmagan holda jinoyat ko'chasiqa kirib qoldi. O'sha paytlari ancha kuchga to'lgan, maktabni endi bitirgan kezlari edi. Kunlarning birida mahalladoshi bilan arzimaz gap tufayli tortishib qoladi. Tortishuv avval o'zaro haqoratga, so'ng bir-birini kaltaklashga aylandi. Oxir-oqibat Abror raqibiga tan jarohati yetkazib qo'ydi. Bu voqea o'z fojiasiga tashlab qo'yilmadi. Jabrlanuvchining ota-onasi Abromi huquqni muhofaza qilish organlariga topshirdi. Jinoyat jazosiz qolmaydi. Hukum o'qilib, yigit muayyan muddat qamoq jazosini o'taydigan bo'ldi. Jazo muddatini to'lay, uyiga qaytayotgan Abromning miyasida bir o'y bor edi: "Endi odamlar orasida qanday yuraman? Tengdoshlarim meni qanday qabul qiladi?"

Yigit o'ylari bilan yolg'iz qolmadi. Mahalla faollari qisqa fursatda u bilan yaqin muloqotda bo'lib, bandligini ta'minlashga e'tibor qaratdi. Ustachilikka qiziqishi aniqlanib, kerakli uskunalar bilan ta'minlash chorasi ko'rildi. Yirik tashkilot rahbariga birkirildi. Abror yolg'iz emasligini

doirasida yil boshidanoq har bir mahallada yoshlar yetakchilari tomonidan band bo'lmagan va ayniqsa, mehnat bozoriga endi kirib kelayotgan yoshlar to'liq qayta xatlovdan o'tkazildi. Ushbu xatlov asosida yigit-qizlarning qiziqishi, salohiyati va bandlikka ehtiyoji chuqur o'rganildi. Bunga ko'ra, Qashqadaryo viloyati bo'yicha qishloq xo'jaligi va dehqonchilikka qiziqish bildirgan 5218 yosh uchun uyiga yaqin joydan unumdor va sug'oriladigan 3845 gektar yer ajratish reja qilingan. Mahalladagi yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida ushbu yer bepul foydalanishga berilmoqda. Bu esa yoshlarning bandligini ta'minlash bilan birga mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishiga keng yo'l ochmoqda. Ayni kunga qadar 4081 yoshga 3045 gektar yer ajratib berildi. Shundan yer olgan yoshlarning 2608 nafari 2031 gektar maydonga mo'ljallagan ekinini ekib bo'ldi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida endi ish boshlagan har bir yoshga alohida agromon birkirtilib, zamonaviy dehqonchilik asoslari, ekin parvarishi va hosildorlikni oshirish yo'llari o'rgatilmoqda. E'tiborlisi, ularga zaruriy boshlang'ich vositalar, bepul urug' va ko'chatlar yetkazib berilyapti.

10 kilogramm urug' 60 tonna hosil bo'ladi

Kasbiylik Malohat Xolmanova yosh oila bekasi. U oliygohning sirtqi bo'limiga o'qishga kirgandi. Institutni sirtidan bo'lsa-da, bitirish oson kechgani yo'q. Sababi turmush tashvishlaridan ortib, shartnoma puli to'lash hammaning qo'llidan kelishi mushkul. Shu sabab imkon qadar yerga ishlab, qo'shimcha daromad topishga harakat qildi. Turmush o'rtog'i bilan birga yaqin atrofdagi bo'sh turgan yerlarni ijaraga olib, bir gal sholg'om, bir gal kartoshka ekdi. Astoydil intilganga yarasha ro'zg'oming kam-ko'stini yopib turishdi. Lekin bu bilan yosh oila oldida turgan rejalarning o'ndan birini ham uddalab bo'lmaydi. Shu bois, boshqa ish qilish harakatiga tushgan yosh oila "mahalla yetiligi" e'tiborini tortdi. Ularga hech qanday to'lovisiz g'alladan bo'shagan bir gektar yer ijaraga berildi.

Hovlimizga yaqin joydan bir gektar yer berilishini eshitib, xursand bo'ldik, — deydi Malohat Xolmanova. — Qulay tomoni avvallari ijarat to'lovi ancha yuqori edi. Bu safar bepul bo'ldi. Faqat takroriy ekin ekib, foydalsanak, bas. Hozirdanoq ishga kirishdik. Asosan, sabzi, sholg'om, turp kabi sabzavotlarni ekdik. Nasib etsa, kuzda hosil yetiladi. Hisob-kitobimizga ko'ra, dalaga 10 kilogrammdan oshiq urug' sepidi. Taxminan 60 tonnadan ortiq xirmon ko'tarish maqsadimiz bor. Bu esa yuqori daromad olishimizga imkon beradi. Ayni paytda dalada oilaviy mehnat qilyapmiz. Kimyoviy o'g'itlarni xarid qilish, texnikalarni ishlatishda "mahalla yetiligi" yordam berib kelmokda.

Har bir yosh — e'tiborda

Yoshlar bandligini ta'minlash, ularni mehnat bozoriga tayyor olib kirish muhim vazifa. Shu bois, viloyatimizda yigit-qizlar bandligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi amaliy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati yoshlar ishlari boshqarmasining "Yoshlar daftari"ni muvofiqlashtirish hamda kasb-hunarga yo'naltirish bo'limi rahbari Suhrob Mustafoyev. — Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi



qaytishda kursdoshimni mo'jaz shaharchadagi ishlar bilan tanishtirdim. O'lis hududlarda, ayniqsa, cho'l o'rtasida barcha infratuzilma va imkoniyatlarga ega shunday maskan borligi unda juda iliq taassurot qoldirdi.

Yurtimizda inson qadrini ulug'lash asnosida xalq roziligi mamlakat ravnaqining asosiy mezonini deya qaralmoqda. Zero, hayotiy faoliyat halqasining har bir bo'g'inidagi ijobiy o'zgarishlar yangi maralar, navbatdagi islohotlar uchun zamin yaratadi.

Ana shunday keng qamrovli o'zgarishlar Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi cho'l

bag'ridagi Zafarobod shaharchasida ham bo'y ko'rsatayotir.

Viloyat markazidan qariyb 80 kilometr masofadagi bu shaharchada bugun 6 mingdan ortiq aholi bor. Ularning asosiy qismi "Navoiyuran" davlat korxonasiining eng yirik tarkibiy bo'linalaridan biri sanalgan Zafarobod kon boshqarmasida mehnat qiladi. Ushbu kon boshqarmasi 1971-yilda tashkil topgan. Hozir u iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylanib ulgurdi. Yildan yilga aholi soni ortib bormoqda. Bu hududda yashayotgan konchilar va ularning oila o'zalari



Bunday yondashuv tufayli yoshlar daromad manbasiga ega bo'lish barobarida yurt ravnaqi uchun mehnat qilyotgan kuchli qatlamga aylanib bormoqda. Shu orqali viloyatda yoshlarga munosabat tubdan o'zgarayapti. Ularning harakati, tashabbusi qadr topib, rag'batlantirilmoqda. Muhimi, mamlakatimizdagi imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha real sharoit taqdim etilmoqda. Bu tashabbuslar esa yoshlar orasida katta ishonch, mas'uliyat va faollik uyg'otmoqda.

"Yoshlar daftari" — imtiyoz va imkoniyat demak

Qashqadaryo viloyatida har yili minglab yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritiladi. Misol uchun, joriy yil boshidan "Yoshlar daftari"ga 5383 yosh kiritilib, ularning 4110 nafari yoki 69,5 foiziga 10,4 milliard so'mlik ko'mak ko'rsatildi. Natijada ular barqarorlikka erishib, "Yoshlar daftari"dan chiqdi. Turli yo'nalishlarda 2023-yilda 29 ming 544 yoshga 41,7 milliard so'mlik, 2024-yilda 12 ming 574 yigit-qizga 24,8 milliard so'mlik yordam berilgan.

Yoshlarga aynan unumdor, suvli yer ajratilishi tufayli ham ijobiy natija qayd etilayotir. Misol uchun, 2024-yilda 7068 yoshga tegishli tartibda 5483 gektar yer 30 yillik ijaraga asosida berilgandi. Natijada 34 ming tonnadan ortiq mahsulot yetishtirilib, yoshlar jami 50 milliard so'mdan ortiq mablag' ishlab topdi. Endi bu ishlarni kengroq davom ettirish maqsad qilingan. Shu yilning o'zida viloyatdagi 828 ta mahalladagi 26 ming 765 ishsiz yoshning bandligini ta'minlash rejalashtirilgan. Hozirga qadar ushbu yoshlardan 9339 nafarining bandligi ta'minlandi. Shundan 5073 nafari doimiy ishga joylashtirildi. 2572 yoshga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun 39,5 milliard so'mlik kredit ajratildi. Shuningdek, 130 yigit-qizga dehqonchilik uchun 82 gektar yer berildi va 680 nafari mehnat qurollari bilan ta'minlandi. Qolaversa, 884 yigit-qiz kasb-hunarga o'qitilib, ishli qilindi.

Bugun Abror kabi adashib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash borasida ham qator vazifalar bajarilmoqda. Avvalo, ularning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, kerakli yordam berilyapti. Bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Idora va tashkilotlar rahbarlarining og'ir toifadagi yoshlarga mas'ul sifatida birkirtilishi ham ijobiy natija bermoqda.

Joriy yil boshida mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi tomonidan aniqlangan og'ir toifadagi ishsiz yoshlarga viloyat, tuman (shahar) hokimlari, ularning o'rinbosarlari hamda tashkilot va korxona rahbarlari birkirildi, — deydi Suhrob Mustafoyev. — Shunga asosan viloyat bo'yicha 12 ming 376 yigit-qiz 463 ta korxona va tashkilot rahbariga birkirtilganini qayd etish lozim. Mas'ullar har oyda kamida bir marta ular bilan uchrashib, yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish choralarini ko'radi. Hozirgacha mas'ullar va yoshlar uchrashuvi natijasida 6825 yigit-qizning bandligi ta'minlandi.

Bugun hech bir yosh e'tibordan chetda emas. Mehnat bozoriga kirib keluvchi bo'ladi yoki adashgan, ishsiz bo'ladi — barchasi diqqat markazida. Yuqoridagi tahlillar ham buni isbotlaydi. Muhimi, kelajak avlod vakillariga qaratilgan har bir e'tibor samara beryapti.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

4

Qaror va ijro

MEHNAT BOZORIDA YOSHLARGA O'RIN BORMI? QASHQADARYOLIK 73 MINGDAN ZIYOD BITIRUVCHI TAQDIRI HAQIDAGI O'YLAR

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda Qashqadaryoda 73 ming 323 yigit-qiz umumta'lim maktablari, texnikum va oliygohlarni bitirib, mehnat bozoriga kirib kelmokda. Ularning bandligini ta'minlashning o'zi bo'lmaydi, albatta. Buning uchun keng qamrovli dasturlar ishlab chiqilib, yirik loyihalar ishga tushirilayotgani ham sir emas. Soha vakillarining ta'kidlashicha, bu borada muammo bo'lmaydi. Bitiruvchilardan 21 ming 768 nafari yoki 29,6 foizi ta'limning keyingi bosqichiga jalb etilsa, qolgan 51 ming 567 nafarining bandligi ta'minlanadi.

Ya'ni 9972 yigit-qiz doimiy ishga joylashtirildi, 6394 nafari kasb-hunarga o'qitildi, 3498 nafari xorijga tartibli ishga yuborildi. Shuningdek, 6819 nafariga yer maydoni beriladi, 1540 nafariga esa subsidiya va 5697 nafariga imtiyozli kredit ajratilib, 17 ming 647 nafar yoshning o'zini o'zi band qilishi rejalashtirilgan.

Har bir yoshni ishli qilish borasidagi jarayon ushbu reja asosida muttasil davom etadi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, ochiq auktsion orqali yer berilmoqda. Takroriy ekin ekish uchun sharoit yaratilmoqda.

Daromad naqd 60 million so'mdan oshadi

G'uzorlik Nurlan Qurbonov shu yil maktabni tamomladi. Qishloqda voyaga yetgani bois, bolaligidan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Ota-onasiga ko'maklashib, kichik tomorqasidan ko'proq hosil olishga harakat qiladi. Har gal hovlida ekilgan sabzavotni chamalar ekan, agar kattaroq yer bo'lsa, shunga yarasha hosil olsam deb o'ylardi. Atigi to'rt sotix bo'lsa-da, tomorqasi yaxshigina daromad keltirayotir. Ammo bor imkoniyatni ishga solish uchun bu joy kamlik qilishi aniq. Shular haqida bosh qotirarkan, biror joydan kattaroq yer olishni rejalashtiradi. Ammo yigitga hech kim yerni shunchaki ishonib topshirib qo'ymasa kerak. O'ila kattalar bilan maslahatlashganda, "Qo'shimcha tashvish kinga kerak?" deya birov xohish bildirmadi. Nurlanning o'zi tavakkal qilib mahallaga yo'l oldi. Yoshlar yetakchisi bilan uchrashib, maqsadini tushuntirdi.

Bu taklif yigitning o'zidan chiqqaniga mamnun bo'lgan yetakchi unga, albatta, yer ajratilishini va'da qildi.

Qisqa vaqtda ko'pchilik qatori Nurlanga ham g'alladan bo'shagan suvli, unumdor yerdan 50 sotix ajratildi.

Shunchalik ishonch bildiriladi deb o'ylamagandim, — deydi N.Qurbonov. — Bundan xursand bo'ldim. Shu bois, ishonchni oqlash uchun ishga kirishdim. Yerni yaxshilab haydab, ekishga tayyorlab oldik. Shundan so'ng sabzi ekdik. Bu sabzavot to'qson kunda tayyor bo'ladi. Hozir agrotexnik ishlarni bajaryapmiz. Yaqinda aynan men kabi yosh dehqonlar uchun ham seminar tashkil etildi. Unda tajribali mirishkorlar yerga ishlov berish, hosildorlikni oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi to'g'risida muhim ma'lumotlar aytdi. Kelusida muntazam maslahatlar berib borishi uchun har bir hududga mas'ullar birkirtilindi. Suyagim dalada qotgani uchun dehqonchilikdan ancha-muncha xabardorman. Shu sabab ko'p ham xavotirim yo'q. Nasib etsa, daromadni 60 million so'mdan oshirish niyatim bor.

Ilhom Farmonov katta fermer bo'lmoqchi

Taqdir bitigini oldindan o'qishning imkoni yo'q. Ayni o'quvchilik chog'ida Ilhom dalada sigirini o'tlatib yurib, tengdoshlari bilan o'yinga berilib ketadi. O'yinning avj pallasida olisdan kinningdir baqirgani bolalarni birdan sergak torttiradi. Hamma o'yinni unutib, sigiri tomon yuguradi. Sababi ular yaqinida ekilgan g'alla maydoni fermerga tegishli. Agar mollar dalaga oralasa, naq baloga qoladi. Har kuni kimgir gap eshitadi, tanbeh oladi. Bugungi navbat Ilhomning chekiga tushgandi. Boisi, o'yinga berilib ketganida

Toshkent shahridan Navoiyga xizmat safari bilan kelgan kursdoshim Uchquduq tumaniga ham borishi zarurligini aytdi. — U tomonlarga hech o'tmaganman. Uzoqmi? — Navoiy shahridan qariyb 300 kilometr uzoqlikda. Bir kunda borib kelamiz.

Bir manzil

— Eh-he, bir viloyat tumani shuncha olismi? — kursdoshim javobimdan hayronligini yashirib o'tirmadi. — Bunday ham olis hududlar bor, do'stim. Shunday, Navoiy viloyatining hududlari juda keng.

— Buncha vaqt cho'lda yurish zerikarli bo'lsa kerak? — Unga hozir yurtimizda cho'llar, olis hududlar ham obod bo'layotganini aytib o'tirmadim. Yo'l-yo'lakay o'zi ko'rib, guvoh bo'lgani yaxshi. Qizilqum sahrosi kengliklarining o'ziga xos jozibasi borligini kelib ko'rmagan kishi eshitgani bilan to'liq his qilmaydi.

Tong saharda yo'lga chiqdik. Konimex tumanidan cho'l hududi boshlandi. Ravon yo'lning ikki tomoni har joyda saksovl ko'rinib turgan cho'l. Navoiy shahri markazidan qariyb 80 kilometr masofa bosib o'tganimizdan keyin bizni

sahrodagi javohirdek ko'p qavatli uylardan iborat Zafarobod shaharchasi qarshi oldi. Sahrodan to'g'ri shaharcha hududiga kirib kelganimizda hamrohlim hayratini yashirib o'timadi.

— Nahotki, cho'lning o'rtasida shunday shahar qurish mumkin?!

— Mumkin, do'stim. Bu shaharchaga ancha yillar avval asos solingan. So'nggi yillardagi bunyodkorlik ishlaridan keyin bunda butkul o'zgacha qiyofa kasb etdi. Hozir sen kabi birinchi marta kelganlar hayratiga sabab bo'lmoqda. Ishingni bitirib qaytayotganimizda, albatta, seni shaharcha bilan tanishtiram.

Uchquduq tumaniga borgunga qadar cho'ldagi obod maskanga aylangan yana bir necha hududlarni unga ko'rsatib bordim. Ayniqsa, uzoq masofa bo'lsa-da, cho'l bag'rini kesib o'tgan yo'lning ravonligi yo'lovchini tinqitirmaydi. Va'da berganimdek, ertasi kuni

SAHRODAGI KO'RKAM SHAHAR

JAVOHIRGA AYLANAYOTGAN QIZILQUMNING ZAMONAVIY QIYOFASI



qaytishda kursdoshimni mo'jaz shaharchadagi ishlar bilan tanishtirdim. O'lis hududlarda, ayniqsa, cho'l o'rtasida barcha infratuzilma va imkoniyatlarga ega shunday maskan borligi unda juda iliq taassurot qoldirdi.

Yurtimizda inson qadrini ulug'lash asnosida xalq roziligi mamlakat ravnaqining asosiy mezonini deya qaralmoqda. Zero, hayotiy faoliyat halqasining har bir bo'g'inidagi ijobiy o'zgarishlar yangi maralar, navbatdagi islohotlar uchun zamin yaratadi.

Ana shunday keng qamrovli o'zgarishlar Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi cho'l

bag'ridagi Zafarobod shaharchasida ham bo'y ko'rsatayotir.

Viloyat markazidan qariyb 80 kilometr masofadagi bu shaharchada bugun 6 mingdan ortiq aholi bor. Ularning asosiy qismi "Navoiyuran" davlat korxonasiining eng yirik tarkibiy bo'linalaridan biri sanalgan Zafarobod kon boshqarmasida mehnat qiladi. Ushbu kon boshqarmasi 1971-yilda tashkil topgan. Hozir u iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylanib ulgurdi. Yildan yilga aholi soni ortib bormoqda. Bu hududda yashayotgan konchilar va ularning oila o'zalari

uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish masalalarini kun tartibiga qo'yadi. Bugun shu kabi masalalarga to'la yechim berish uchun qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

— Hududdagi keng ko'lamli qurilish-bunyodkorlik ishlari o'tgan 2024-yilda boshlangan edi. U olitda yirik loyihani o'z ichiga oladi, — deydi Zafarobod mahallasi raisi Saydullo Sharopov. — Cho'l o'rtasidagi sun'iy ko'lni rekonstruksiya qilishga 14,1 milliard so'm yo'naltirilgan. Bolalar uchun 360 o'rinni bog'cha qurilishiga 17,5 milliard so'm sarflanishi ko'zda tutilgan. Ayni paytda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sifati bilim olishini ta'minlash maqsadida kutubxona ham barpo etilmoqda. Shuningdek, aholining maroqli hordiq chiqarishi, iqtidorli yoshlar ijodiy chiqishlar qilishi uchun amfiteatr qurilyapti. Ushbu loyihalardan ko'zlangan maqsad xalqimizga qulaylik yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun dam olish maskanlarini ko'paytirishdir. Zamonaviy ta'lim maskanlari, ko'p qavatli uylardagi sharoit katta shaharlardagidek. Hudud infratuzilmasining tubdan yaxshilangani bois, Zafarobod zamonaviy ko'rkam shaharchaga aylandi.

Shuningdek, shaharchada dam olish hududlari, yashil maydonlar, ovqatlanish va xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etilmoqda. Yashil hududlar kengayayotgani shaharcha ekologik muhitini yaxshilashga xizmat qilaypti. Dam olish maskanlari va sport infratuzilmasi rivoji aholiga mazmunli, samarali hordiq chiqarish imkonini bermoqda. Bu kabi loyihalar odamlar hayotiga o'zgacha mazmun va ijobiy kayfiyat bag'ishlayapti.

Yanliglanishlar zamiridagi ustuvor vazifa esa farovon turmush tarzini ta'minlash, zamonaviy, qulay va xavfsiz infratuzilmani yaratishdir. Shu maqsadda hududdagi barcha ko'p qavatli uylarda mukammal ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Uylarning tashqi ko'rinishi,

muhandislik tarmoqlari, kirish qismlari va qavatlararo umumiy foydalaniladigan maydonlarni qayta ta'mirlanib, zamonaviy talabga mos holatga keltirilmoqda. Masalan, 120 ta yo'lakka zamonaviy va mustahkam temir eshik o'rnatildi. Qavatlar oralig'ida derazalar yangilandi.

— Ayni paytda hududda mavjud bo'lgan sun'iy ko'l havzasini rekonstruksiya qilish yakuniga yetmoqda, — deydi "Navoiyuran" DK qurilish investitsion loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Diyorjon Hamidov. — Loyiha doirasida ko'l atrofi zamonaviy dam olish maskaniga aylantirilib, ko'l mayoyi barpo etildi. Uzunligi 850 metrga teng yugurish yo'lgi, tunda yoritish chiroqlari o'rnatilib, bolalar uchun xavfsiz va jihozlangan o'yingoh, sportsevarlar uchun vorkaut maydoncha qurish ham ko'zda tutilgan. Ushbu loyihalarga pudratchi tashkilotlar, tajribali mutaxassislar, quruvchilar va maxsus texnika jalb etilgan. Barcha inshootni 2026-yil so'ngigiga qadar foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Zafarobod shaharchasidagi bunyodkorlik ishlari ko'lami yangidan yangi obyektlar, zamonaviy turar joylar va dam olish maskanlari misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shaharchada bolalar uchun o'yingohlar, favvoralar, xizmat ko'rsatish va ovqatlanish shoxobchalari, yashil hududlar, avtoturargoh hamda yirik savdo majmualari qurilishi jadal sur'atda olib borilmoqda. Bu islohotlar, albatta, shahar aholisining kayfiyati, turmush darajasi va hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qizilqum sahrosining javohiriga aylangan Zafarobod shaharchasi yangi O'zbekistondagi islohotlar olis hududlarni ham birket qamrab olayotganining yana bir amaliy ifodasidir.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Kamolot pillapoyasi



Ilhom MAMATKULOV,
Toshkent shahridagi Singapur
menejmentni rivojlantirish
instituti rektori

Uzoqqa bormaymiz: bir oy muqaddam yurtimizda Yoshlar kuni ko‘tarinki kayfiyatda, bayramona nishonlandi. Faol, g‘ayratli, namunali, ilmiy yigit-qizlardan bir guruhini davlatimiz munosib taqdirldi ham. Prezidentimiz shaxsan ular bilan uchrashib, samimiy muloqot qildi. Taklif va tashabbuslarini eshitib, qo‘llab-quvvatladi. Fikrlari bilan ularga dalda, kuch berdi. Shu bois, bu uchrashuvni tarixiy voqea sifatida talqin qilsak arziydi. Binobarin muloqot yuksak e‘tibor va samimiy munosabatning yorqin ifodasi o‘laroq, yoshlar hayotida keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Uchrashuvda aytilgan fikrlar va ko‘rilayotgan chora-tadbirlardan mamlakatimiz taraqqiyoti markazida yoshlarning o‘mi beqiyosligini ko‘rish mumkin. Ularni qo‘llab-quvvatlash, iqtidorini yuzaga chiqarishda zarur shart-sharoitlar yaratish ertangi kun uchun qo‘yilgan mustahkam qadamdir.

Bugungi O‘zbekiston bu borada yoshlarga katta imkoniyat taqdim etayotir. Yoshlarga sifatli ta‘lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o‘rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish davlatimizning asosiy vazifasiga aylandi. Keyingi yillarda tashkil etilayotgan zamonaviy oliy o‘quv yurtlari, ularning ilg‘or jihozlari hamda sohaga xususiy sektorning faol jalb qilinishi yoshlarimizga ana shunday katta imkoniyat va qulaylik taqdim etmoqda. Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida ham oshlamlar bilan ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. OTMda 5000 ga yaqin yigit-qiz ta‘lim oladi. Tabiiyki, ular qatorida xorijdan kelib o‘qiyotganlar bor. Shuningdek, mahalliy pedagoglar bilan birga chet ellik professor-o‘qituvchilar ham ta‘lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Bilimli yoshlar millat kelajagi, mamlakat taqdirini hal etuvchi kuch. Bu kuchni kerakli, zarur va o‘z o‘rnida ishlatishtir ayni muddao. Ko‘zlangan maqsadga navqiron avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish orqali erishiladi. Bugun mamlakatimizdagi ishlar shu jihati bilan alohida e‘tiborga molik. O‘g‘il-qizlarimizga yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida qaralayotganining o‘ziyoq yurtimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor va dolzarb yo‘nalishiga aylanganini anglatadi.

ILM – NAVQIRON AVLODGA KUNDALIK ZARURAT

Talabalar Singapur, Buyuk Britaniyadagi oliy ta‘lim dargohlarida amaliyot o‘tash, tajriba almashish imkoniyatiga ega.

Joriy yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan ta‘lim tizimida “Dolzarb 90 kun” loyihasi amaliyotga kiritildi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

shug‘ullanmoqda. Bu jarayonga mahalla yoshlari ham faol jalb etilyapti. Oliy o‘quv yurtlari talabalari esa ularga bilim berishda faol ishtirok etayotgani yozgi ta‘tilning mazmunli va samarali kechishiga xizmat qilayotir. Jarayonda institutimiz jamoasi, talabalari ham munosib qatnashmoqda, albatta.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!**



Aytish joizki, mazkur tashabbus mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e‘tiborning yana bir namunasi bo‘ldi. Negaki ayni shu loyiha doirasida yoshlarning yozgi ta‘til paytida foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishlari uchun qulay imkoniyat yaratildi. Davlatimiz rahbari g‘oyasi ularning bo‘sh vaqtini foydali tomonga yo‘naltirishda qo‘l keldi. O‘quvchilar o‘z maktablarida turli to‘garaklarda qatnashib, bilimlarini yanada boyitish barobarida, sport bilan

Ta‘lim olish, biror kasb egasi bo‘lish, xorijiy tillarni o‘rganish bugungi yoshlar uchun kundalik zaruratga aylanganmoqda. Ilm va iqtisodiyot bilan bir qatorda yoshlarning ma‘naviy dunyosi, madaniy salohiyati hamda ijodiy qobiliyatiga ham jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. “Kelajak liderlari” dasturi doirasida Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida iqtidorli yoshlarni xorijiy tajribalarga jalb etish tizimi shakllantirildi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida

325 ming yigit-qiz o‘qitilgan. O‘tgan yili 150 mingdan ziyod yosh til bilish darajasi bo‘yicha xalqaro sertifikatlarni olgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yildagiga nisbatan 2 barobar ko‘p. Joriy yilda 35 milliard dollarlik 8300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o‘rni ochilmoqda. Yana 500 mingta ish o‘rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada “yashil iqtisodiyot”, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarida minglab mutaxassislarga talab paydo bo‘ladi.

Startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizim yaratilib, ularni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritildi. Endi bu mablag‘ 1 milliard dollarga yetkaziladi. Oliyoghlr o‘rtasida startaplar bo‘yicha har yili “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblarga oliyoghl jamg‘armasidan 300 million so‘mgacha grant beriladi.

Yoshlarni ish bilan ta‘minlash va tadbirkorlikka keng jalb etish xususida ham yirik loyihalar ustida ishlamoqda. Ayniqsa, “Yoshlar biznesi” hamda “Kelajak qadam” dasturlari orqali minglab yigit-qizlar mehnat bozorida o‘z o‘rnini topmoqda. Bu jarayonda banklar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutmoqda. Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligida band yoshlarning kasbiy rivojlanishi uchun ham tizim yaratiladi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha yoshlar o‘rtasida musabqalar o‘tkaziladi. Bunda davlat korxonalarini va xususiy sektor vakillari tengmately ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o‘z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijga malaka oshirishga yuboradi. Buning uchun har bir tarmoq 10 milliard so‘mdan ajratadi. Bunday

yengillik, imkoniyat va sharoitlar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Muhimi, ular maayyan maqsadga yo‘naltirilgan. Har biri yoshlarni ilimga chorlaydi.

Umuman olganda, 25 yil ichida davlat hisobidan 800 nafar yigit-qiz xorijga o‘qishga ketgan bo‘lsa, so‘nggi 7 yilda birgina “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 2 ming 300 nafar vatandoshimiz shunday imkoniyatga ega bo‘ldi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlarning imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ham ilgari surdi. Xususan, Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etilganini aytdi. Unga 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 o‘quvchi saralab olinib, 3 ta yo‘nalishda chuqurlashtirib o‘qitiladi.

Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3000 o‘quvchi tanlanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi nufuzli oliyoghlarga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘ladi.

Nufuzli xorijiy oliyoghlarga kirayotgan barcha yoshlar ham 100 foizlik grant olib imkoniyatiga ega emas. Shu bois, endi “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ilg‘or OTMlarning 300 taligiga kirganlarning o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda yo‘lga qo‘yiladi.

Zamon rivojlangani sari yangi yo‘nalish va kasblar paydo bo‘laveradi. Ularni tushunish uchun esa bilim va tajriba kerak. Bugungi yoshlar ham shunga intilmoqda. Ularning bu boradagi xohish-istaklarini ro‘yobga chiqarish uchun esa davlat qulay shart-sharoit yaratib bermoqda. Yangi imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Aytaylik, sun‘iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha bank-moliya, sog‘liqni

saqlash, qishloq xo‘jaligi va energetika ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, 100 ta loyiha amalga oshirilishi rejalangani, Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million sun‘iy intellekt yetakchilari” dasturi ishga tushirilishi shunday sa‘y-harakatlar sirasiga kiradi.

Bundan tashqari, “Raqamli avlod qizlari” tanlovida ta‘lim, sun‘iy intellekt, “yashil iqtisodiyot”, iqlim o‘zgarishi kabi sohalarida 7000 o‘quvchi va talabani 120 ta startap loyihasi tanlab olindi. Ushbu loyihalarga kamida 50 ming qiz qamrab olindi.

Bu yilgi Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlarda ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar yoshlar siyosati barcha sohada izchil va tizimli yuritilayotganini yana bir bor namoyon etdi. Ilm-fan, ta‘lim, iqtisodiyot, madaniyat va davlat boshqaruviga doir barcha tashabbus yoshlar kelajagiga ishonch namunasidir. Oliy ta‘lim tizimi esa shu yo‘lda mustahkam poydevor yaratish, ya‘ni ilimga undash orqali hissa qo‘shadi.

Navqiron avlod vakillariga berilayotgan imkoniyat va qulayliklarni tahlil qilsak, yoshlarga e‘tibor yangi O‘zbekistondagi siyosatning ustuvor va eng ahamiyatli yo‘nalishiga aylangani namoyon bo‘ladi. Bunga hayotiy misollar, fakt va raqamlar juda ko‘p. Bu masala doimiy e‘tiborda. Davlatimiz rahbari qayerga tashrif buyurmasin, qaysi soha vakillari bilan uchrashmasin, albatta, yoshlar bilan muloqot qilishga vaqt ajratadi. Ularning fikr va mulohazalarini tinglab, zarur topshiriq va tavsiyalar beradi. Jumladan, yil boshida, ya‘ni 14-fevral kuni ham yoshlar bilan muloqot qildi. Videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etilgandi.

O‘zbekiston aholisining 60 foizi yoshlardan iborat. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qiz kirib kelmokda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 millionga yetadi. Uchrashuvda ana shu jihatlardan kelib chiqib, yoshlarning bandligini ta‘minlash, intilishlariga mos sharoit yaratish davlatimizning ustuvor vazifasiga aylangani yana bir bor qayd etilib, o‘g‘il-qizlarni munosib o‘qish va ish sharoiti bilan ta‘minlash zarurligi ta‘kidlangan. Amaliy tashabbus va takliflar bildirilgandi.

Bugun kreativ iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotganlarning 98 foizi yoshlar. O‘tgan yili bu bo‘yicha qonun qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlangani yoshlarning bu yo‘nalishdagi faoliyatini tobora kengaytirmoqda. Hududlarda ham kreativ industriya parklari barpo etilayotgani va ularning rezidentlariga 2030-yil oxirigacha imtiyozli soliq rejimi qo‘llanishi belgilangani katta yordamdir.

Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashib, muloqot qilishi o‘g‘il-qizlarga katta kuch va dalda beradi. Mazkur uchrashuvlarning o‘zi davlat yoshlar bilan qanchalik yaqin munosabatda ekanini anglatadi. Ularning har bir g‘oyasi va tashabbusi e‘tibordan chetda qolmasligini bildiradi. Zotan, bugungi e‘tibor ertaga katta ehtirom va samara olib keladi. Oliy ta‘lim esa yigit-qizlarimizga ana shunday eng muqaddas yetishishi uchun ko‘makchi bo‘lib qolaveradi.

YANGI O‘ZBEKISTONNING MA‘RIFIY SIYOSATIGA CHIZGILAR

Uyg‘oq fikr

Yurtimizning janubdagi gavhari va darvozasi sanalgan Termiz shahrida chorak asrdan buyon istiqomat qilaman. Umrim 60 dovondan oshganiga ham besh yil bo‘ldi. Nokamtarlik bo‘lsa ham aytaman, meni mamlakatimizda va xorijda taniqli arxeolog sifatida bilishadi. Yillar davomida menga poytaxtda ishlash taklifini berib kelishadi.



Shopo‘lat SHAYDULLAYEV,
tarix fanlari doktori,
professor

Nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari, oliyoghlr, institutlar tomonidan chorlovlr bo‘ladi. Shunda qisqa qilib javob qaytaraman: “Bilmay qolibmanki, tanam daraxt yanglig‘ qancha ko‘kka o‘rlassa, ildizim ham yer qo‘riga shuncha singib boribdi. Endi bu osmonni qoplagan shox-shabbani va keng ildizni sudrab qayga boraman!”.

Har bir insonning vatan oldidagi o‘z missiyasi bor. Har kishining qalbidan vatanning jajji qiyofasi yashaydi. Vatanning bir zarrasi ekanini anglamoq kishi uchun iftixor va sharaf sanaladi. Vatanni sevmok, qadrlamoq, qayda bo‘lmasin uning ravnaqi va shon-sharafi uchun xizmat qilmoq kerak. Ustoz sifatida ko‘plab fan doktorlari, nomzodlari va tadqiqotchilarni yetishtirib chiqardim.

Tarixdan ayonki, faqat poytaxtlar va yirik markazlargagina emas, eng chekka hududlargacha ilm-ma‘rifat, madaniyat va san‘at kirib borsa, odamlarining dunyoqarashi kengaysa, vatan haqidagi tushunchalar ko‘ngillarda sobitlik qilsa, mamlakatning chinakam rivoji shunda kuzatiladi.

Bugungi kunda dunyoning yettita davlati arxeologlari bilan qo‘shma ekspeditsiyalar

tashkil etib, hamkorlikda Surxondaryo viloyati hududida qazishma ishlarni olib boramiz. Ularning ayrimlariga, masalan, o‘zbek — fransuz qo‘shma ilmiy ekspeditsiyasi faoliyati boshlanganiga bu yil 31 yil to‘ldi.

Taniqli arxeolog do‘stim Per Lerish har yili O‘zbekistonga kelib, hududlarda biz bilan hamkorlikda qazishmalarda qatnashadi. U yaqinda bir gap aytib buyrdi: “Chorak asrdan ko‘proq vaqtdan buyon yurtimizda tadqiqot olib boraman. Bundan 6-7 yil oldin ham vataningizga kelib-ketish bilan bog‘liq muammolar, hujjatlarni rasmiylashtirish, doimiy so‘rovlar, ish jarayonidagi sharoitlar bizni chinakam toliqtirardi. Bugun butun dunyoning biz kabi ilm odamlari uchun bunday to‘siqlar olib tashlangan”.

Rost aytdi. Bu jarayonlarning ichidagi inson sifatida bilaman. Lekin inson unutuvcida! Qancha sharoit va imkoniyatlar, yo‘llar ochilgani sari kechani tezda unutamiz. Ammo inson qalbidan doimo o‘zining xulosasi bo‘lsin!

Poytaxt va eng chekka manzillarning ilm-ma‘rifat markazlari sifatidagi keskin tafovuti 7-8 yilning nari-berisida qolib ketgan. 2017-yildan e‘tiboran O‘zbekiston —

— Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi faoliyatida o‘ziga xos davr boshlandi. Men faoliyat yuritayotgan Termiz davlat universiteti va Fransiyaning Ekol Normal Suprier filologiya va arxeologiya ilmiy-tadqiqotlar laboratoriyasi o‘rtasida shartnoma imzolaniib, keng ko‘lamli ishlar boshlandi.

Biz surxondaryolik qadimshunoslar — Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilari vohada nafaqat Fransiya, balki Chechiya, Rossiya, Xitoy va yaponiyalik arxeologlar bilan hamkorlikda e‘tiborga molik xalqaro loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. Masalan, O‘zbekiston — Chechiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi ish boshlaganiga ham 20 yildan oshdi. Ammo keng ko‘lam va chinakam arxeologik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishimizga keyingi 7-8 yildagi o‘zgarishlar va ochig‘lik sabab bo‘ldi. Masalan, birgina o‘zbek va chex arxeologlari hamkorlikda Surxondaryo viloyatida dala qazuv ishlari jarayonida 300 ga yaqin yangi arxeologik yodgorlik kashf etilgan. Xalqaro ekspeditsiya ish boshlaganidan buyon vatanimiz tarixiga doir katta loyihalarni amalga oshirishni ko‘zlagandik va o‘zaro hamkorlikda maqsadlarga erishyapmiz.

Yaqin yillardan xitoylik taniqli arxeolog olim Ma Jiyani ishtirokida O‘zbekiston —

Xitoy xalqaro ekspeditsiyasini ham tashkil etganmiz.

Dastlab xitoylik qadimshunoslarni yurtimizdagi ilmiy anjumanlarga taklif qildik. Shundan so‘ng ular mamlakatimizdagi ilm-fanga berilgan e‘tiborni e‘tirof etishdi. O‘zbekiston arxeologiyasi katta maktab ekanini, Yevropaning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari bilan aloqalar o‘rnatilganini bilishdi. Shunda xitoylik olim Ma Jiyanning bir fikri e‘tiborimni tortdi: “Qayerdaki o‘zaro hamkorlikka ishonch va e‘tibor bo‘lsa, o‘sha yerda ilm-fan rivojlanadi. Yevropa davlatlari arxeologlari shu uzoq vaqt davomida samarali ish olib boribdimi, demak, O‘zbekistonda biz — xitoyliklarning ham ishlarnimiz yaxshi bo‘lishiga ishonchim komil. Bugungi tekzor rivojlanayotgan zamon va shunga hamohang taraqqiyotga yuzlanib dunyoga ochilayotgan O‘zbekistonda rivojlangan mamlakatlar bilan o‘zaro ilmiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. Aslida, xalqaro hamkorlik innovatsiyalarning asosiy drayveri”.

Bor gapki, bugungi Surxondaryo bundan 8-9 yil avvalgi voha emas. Termiz shahri esa ilm-fan va madaniyat, ta‘lim markazlaridan biriga, nihoyatda obod va go‘zal makonga aylangan. Masalan, Surxondaryoda o‘tgan asrning



60-yillaridan toki 2017-yilga qadar bittagina oliyoghl — Termiz davlat universiteti mavjud edi. Keyingi 7 yilda ularning soni 5 tadan oshdi. Voha shimolida ham ilk bor oliyoghl — Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyat boshladi. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali tashkil etildi. Imom Termiziyi nomidagi islom instituti va Imom Termiziyi o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasasi ochildi. Nodavlat xususiy oliyoghlr, maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ko‘payishi sohada chinakam raqobat muhiti yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bu esa ilmiy avlod shakllanishiga xizmat qilayapti. Ijtimoiy soha, ayniqsa, maktabgacha va maktab ta‘limida ham qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 2017-yildagidan bir necha barobar o‘tdi. Hududlar kesimida eng yaxshi ko‘rsatkichlar sifatida Surxondaryo viloyatini ham ko‘rsatish mumkin. Joriy yildagi ma‘lumot, yoshlarning oliyoghga kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha Surxondaryo bir yil ichida 11-o‘rindan 4-o‘ringa ko‘tarilib, katta sakrash qildi. Hududlar rivojida, tabiiyki, ularning demografik xususiyati, mehnat va tabiiy resurslari muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir hudud bir-biridan resurslari, salohiyati bilan farqlanib turadi. Vohadan taniqli tasviriy san‘at ustalari yetishib chiqqani sababli ularning munosib davomchilarini kashf etish maqsadida Termiz shahrida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufida Ro‘zi Choriyev nomidagi Surxondaryo ixtisoslashtirilgan san‘at maktab-internati faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbek baxshichilik san‘ati rivojiga surxondaryolik baxshilar ko‘shgan hissa e‘tiborga olinib, Shoberdi baxshi Boltayev, Xushboq baxshi Mardonagulov,

Abdunazar baxshi Poyonov, Shodmon baxshi Egamberdiyev, Baxshiqul baxshi Tog‘ayev kabi bir qancha O‘zbekiston xalq baxshilarining izdoshlarini tarbiyalash maqsadida Termizda baxshichilikka ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati tashkil etildi. Bu yerda ilk o‘quvchilar 2021-yilda qabul qilindi.

Gap kelganda aytgim keldi, deputat sifatida xalq g‘amini o‘zining g‘amini sifatida qabul qilganman. Davlat rahbarining 2023-yilning 16-17-noyabr kunlari Surxondaryoga tashrif davomida voha faollari ishtirokidagi yig‘ilishda ishtirok etgandim. O‘shanda Prezidentimiz Surxondaryo tajribasi sholida “Ma‘naviyat sektori”ni tashkil etish topshiriq‘ini bergan edi. Buni olim sifatida, birinchi navbatda, Surxon eliga, uning ma‘rifati xalqiga, o‘zi singari ziyolilariga bo‘lgan e‘tibori va ishonchi tufayli deb qabul qilganman. Bugun dunyoda kechayotgan tahlikali bir sharoitda ma‘naviyat, ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, ilm-fan yutuqlarisiz yuksak cho‘qqilarni zabt etib bo‘lmastligini teran anglayman. Har gal oliyoghga, auditoriyaga yosh avlodga saboq berish maqsadida kirib borarkanman, bir gapni sira ta‘kidlashdan charchamayman: “Ilm, bu — najot! Shu bois, ajdodlarimiz ta‘lim va tarbiyaga eng muhim omil sifatida alohida ahamiyat bergan. Ma‘naviyatli va bilimli avlod esa hech qachon yot g‘oyalarga og‘ishib, o‘z vatanidan, o‘zligidan kechmaydi”.

Bugun yangi O‘zbekiston ana shunday ilmiy salohiyati yuksak, ma‘naviy jihatdan qudratli yosh avlodni tarbiyalamoqda. Ana shu yangilanishlar esa barcha hududda birdek tashkil etilayotgani soha fidoyilarini haqli ravishda quvontiradi.

Albatta o‘qing!

Bobilmi yoki Vavilon?

(“So‘z latofati” kitobidan)

Tashqaridan so‘zlar qabul qilish barcha tillarga xos va barcha tillarda o‘z grammatik va talaffuz qoidalarini asosida so‘z qabul qilish qoidasi bor. Masalan, holat ma’nosini bildiruvchi lotincha “positio” (pozitio) so‘zi rus tilida pozitsiya, fransuz tilida “pozision”, ingliz tilida “pozishn” tariqasida ishlatiladi va hech kim asli lotinchada qanday bo‘lsa shunday talaffuz etishni talab qilmaydi. Bizning ismlarimiz litvoniyaliklar tilida Ahmadas, Mahmudas, Muhammadas bo‘ladi va biz bundan xafa bo‘lmaymiz. Ruslar ham “palov”ni “plov” deb, “Jabbor”ni “Djabbar”, “Muhammad”ni “Magomet” desalar ayb emas, lekin biz “borsh”ni “borsh” deb, “sirk”ni “sirk” deb aysak yoki yozsak gunohi azim hisoblanadi.

*Yuvvoshlidan o‘zgalarini
Yelkamizga mindirdik.
Yot so‘zlarni aytolmasdan
Tilimizni sindirdik.*

Ruscha so‘zlarni va rus tili orqali kirib kelgan so‘zlarni faqat ruscha talaffuz qilishga, hatto rus tiliga buzib ko‘chirilgan so‘zlarni biz ham buzib yozish va o‘qishga majbur edik. Masalan, rus tilida yumshoq “h” tovushi bo‘lmagani uchun Hamlet, Hayne, Hamburg nomlarini Gamlet, Geyne, Gamburg deb talaffuz qiladilar. Biz ham asiyatga mos tovushimiz bo‘laturib, shu tariqa yozish, aytishga majbur edik. Endi bunga zarurat yo‘q. Lekin bizga o‘rganish bo‘lib qolgani uchun hozirda ham shunday. Butun dunyo Suriya, Bobilun, barbar, desa ruslar lotin yozuvini kirillitsada o‘qib, Siriya, Vavilon, varvar deb qabul qilganlar va biz ham shunday xato yozib, xato o‘qidik va bu xatolik hozir ham davom etmoqda.

Chetdan kelgan so‘zlarni xalqimiz allaqachon o‘z tiliga moslab olgan. Biz doktor, mashina, stakan, ryumka deb yozsak va aytishga urinsak-da, xalq, do‘xtir, moshin, istakon, rumka deb ishlatadi va anglab-anglamay xalqaro qoidalariga amal qiladi. Bil‘aks, tilshunos



olimlar sun‘iy qoidalar bilan o‘z ona tilimiz qonuniyatiga ham, xalqaro qonuniyatga ham zid ish tutadilar.

Qurbon ota degan shoir “mototsikl” so‘zini aruz vazniga sololmay armon bilan o‘tgan ekan. Darhaqiqat, “mototsikl” so‘zi aruz u yozda tursin, o‘zbek she‘rining hech bir vazniga tushmaydi. Negaki mototsiklning g‘ildiragi aylansa ham uni aytishga til aylanmaydi. Agar mabodo bizda ham o‘sha xalqaro qoidalar amal qilib, xalq qabul qilgandek “mototsikl”ni “matasekil” desak, bu so‘zni hamma vaznga solish mumkin bo‘ladi.

Baynalmilal so‘zlarni tarjima qilish, yoki o‘z ona tilimizga moslash xalqqa qulay qilish barobarida badiiy adabiyot, avvalo, she‘riyat uchun zarur. Tilga begona so‘z bamisoli guruchdan chiqqan toshdek o‘quvchining tishiga tegadi.

Orzu qilamanki, “atom” so‘zi o‘zbekchada “zarra” deb ishlatilsayu, men shunday tuyuq yozsam:

*Boqiy ermaslar quyosh ham, zarra ham,
Parchalangay parchalanmas zarra ham.
Lekin ey dil, ruh abaddir, ruh abad,
O‘zgasiga qilma parvo zarra ham.*

Qani “ryumka”, “stakan” so‘zlari ham o‘zimizning so‘zlarga aylanib, she‘riy tilga kirsas:

*Quy ey soqiy, labolab rumka ermas, istakonimga,
Qani mastona xobimda yetishsam istagonimga.*

“

Eskidan qolgan “G‘alati mashhur” degan gap bor. Bu “mashhur bo‘lgan xato” demakdir. “G‘alat” so‘zining o‘zbek tilida “g‘alati” shaklida “qiziq”, “ajoyib” degan ma’no kasb etgani o‘zi g‘alati mashhurdir.

G‘alati mashhur

Toshkent viloyatida yondosh ikki shahar bor: Angren va Ohangaron. “Angren” so‘zi “Ohangaron”ning rus tiliga buzib ko‘chirilgan shakli ekanini birov bilar, birov bilmas. Ohan — temir, ohangar — temirchi, ohangaron — temirchilar ekanini ham odamlarning esidan chiqqan shekilli, hech kim “Hay, bu nimasi, bitta nomda ikki shahar bo‘ladimi?” deb so‘ramaydi. So‘raganda kim quloq solardi? Bitta tentakning ishini mingta dono tuzatolmas deb shuni aytadilar.

Eskidan qolgan “G‘alati mashhur” degan gap bor. Bu “mashhur bo‘lgan xato” demakdir. “G‘alat” so‘zining o‘zbek tilida “g‘alati” shaklida “qiziq”, “ajoyib” degan ma’no kasb etgani o‘zi g‘alati mashhurdir.

“Xunuk” so‘zi forschada sovuq, “muttaham” arabchada jinoyatchi ma’nolarini anglatadi. Ko‘pgina Sharq mamlakatlariida “daftar” deb idora, ofisni, “mahkama” deb sudni aytadilar.

Keyingi yillarda tilimizga “oliyogoh”, (institut) so‘z kirib qoldi. “Qarogoh”, “Sajdagoh”, “Janggoh” so‘zlaridagi joy ma’nosini bildiruvchi “goh” so‘shimchasi oldidan predmet yoki harakat nomini anglatuvchi so‘zni ko‘shib atama yasash mumkin. Buning tilshunoslarimiz yaxshi biladigan ko‘pdan ko‘p shartlari bor. Shulardan biri va asosiysi, nazarimda, qisqalikdir. “Ostanovka” degan to‘rt bo‘g‘inli so‘z

o‘rniga ikki bo‘g‘inli osongina “bekat” so‘zi tez singib ketdi. Lekin qisqagina “shofyor” o‘rniga sun‘iy yasalgan “haydovchi”ning lug‘atga ketishi qiyinroq. Shuning uchun tilga moslab olingan “sho‘pir” so‘zini xalq ko‘proq ishlatadi.

Amerikada bir yosh uyg‘ur yigitdan “unolg‘i” degan so‘zni eshitdim. Mikrofon ma’nosida. Juda chiroyli topilgan, til tabiatidan kelib chiqqan, binobarin tez o‘zlashib ketgan so‘z ekan. “Qimmatbaho metallarning probasi” to‘g‘risidagi qonun loyihasi muhokamasida “proba” so‘zining o‘zbekchasi ustida bahs ketdi. Albatta, davlatchilik tarixi bor bo‘lgan xalqlarda oltinning asillik darajasini bildiruvchi so‘z bo‘ladi. O‘sha muhokamada biz o‘z tariximizdan ajralib qolganimizni yana bir karra his etdik. O‘zbekchada “proba” so‘ziga ekvivalent atama bo‘lmasiligi mumkin emas. Amir Temur davlatida, xonliklar zamonida oltin tangalar zarb etilgan, tilla yombilar quyilgan. Biz Qonunning nomini vaqtincha “Qimmatbaho metallarning asillik darajasi” deb qo‘ydik. Ko‘nglimiz to‘lmadi. Yaqinda xorazmlik bir shoira “yorg‘it” degan so‘z borligini, oltinning qimmatini yorg‘it bilan o‘lchanganini aytib qoldi. Bu so‘zning qanchalik “proba”ga yaqinligini o‘rganib ko‘rish, ya’ni ushbu so‘zning asillik darajasini tekshirish tilshunos olimlarimizga havola. Sobiq sho‘ro zamonida o‘zbek tilida qonun yozilmagan. Umuman, O‘zbekistonda qonun yozilmagan. Barcha respublikalar uchun ham Moskvada tayyorlangan. Shu bois, o‘zbekning devon tili, ya’ni hujjat yozadigan tili unutilib ketgan. Biz yoshligimizda biror joydan ma’lumotnoma oladigan bo‘lsak, bunday hujjat odatda “Berildi ushbu spravka...” deb boshlanar edi. Keyinchalik ma’lumotnomalar umuman o‘zbekcha yozilmaydigan bo‘ldi.

O‘zbek tili davlat maqomiga ega bo‘lgach, endi barcha qonunlar o‘zbek tilida yozilib, keyin boshqa tillarga tarjima qilinishi kerak. Lekin qonun tilining o‘zi mavjud bo‘lmasa, boz ustiga ko‘pchilik olim mutaxassislarimiz ruscha o‘qigan bo‘lsalar, hammasidan ham adliya terminlari asosan, ruscha bo‘lsa, qonun yozuvchilarga oson emas. Lekin holatning mushkulligiga ko‘nib, iloj qancha deb o‘tirsak ham bo‘lmaydi. Akademiya qoshida butun boshli institut mavjud. Turli sohalarida terminologiya bilan shug‘ullanuvchi olimlar bor. Ilmiy qudratimiz boshqalardan hech kam emas. Faqat ushbu ulkan ishga astoydil kirishmoq, tilshunos olimlar, turli soha mutaxassislari, turli mintaqalarimiz vakillarini umuman keng xalq ommasini, ayniqsa, matbuotni safarbar qilmoq zarur bo‘ladi.

Bir zamonlar Napoleon Bonapart qonun qisqa va tushunarsiz bo‘lsin deya ko‘rsatma bergan ekan. Xalq o‘z haqini tanimasin, qonunni imperator qanday talqin qilsa, shunday tushunilsin degan maqsadda u shunday buyruq bergandir. Xalqqa o‘z huquqini anglatish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bizning zamonada qonun, albatta, qisqa va tushunarli bo‘lmog‘i kerak. Uzundan uzoq jumlarlar tuzish, o‘zbekcha yozaturib, ruscha fikrlash devon tilimiz uchun bezak emas. Ba’zi hujjatlarni o‘qib, yozgan odamning o‘zi uni tushunarmikan degan savol xayolga keladi. Mana bu gapni o‘qib ko‘ring: “Ixtiroga taalluqli axborotning muallifi yoki undan bevosita yoxud bavosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e’tiboran ko‘pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo‘lsa, ixtironing patentga layoqatligini tan olishga ta’sir ko‘rsatadigan holat sifatida e’tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo‘ladi”.

Bu kabi chigal, jimjimador bayon uslubi tilimizga begona. Fikrlash tarzi o‘zbekcha emas. Shuning uchun gapning mag‘zini chaqish amri mahol. Ruschasini o‘qib tushunish osonroq.

Gapirsa gap, o‘rtaga ko‘ysa, muammo ko‘p. Xulosa so‘zni aysak, ona tilimizni sevish, u bilan iftixor qilish, ta’riflar berishning o‘zi kam ekan. Til ustida mehnat qilish, uni boyitish, yanada go‘zal va qudratli qilish olim va ijodkorlarning, men o‘zbekman degan har bir yurt farzandining burchi ekan.

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri

Bag‘ringda yayragan misli o‘g‘il-qiz,
Sen bilan har bir jon topar rizq-u ro‘z,
Shu bois, mo‘tabar dillarda bir so‘z —
Sen — ona tabiat, ona tabiat.

Xo‘b inja san‘atdan aylaydi ogoh,
Quyosh — ko‘kdan boqqan nur to‘la nigoh,
Zaminni bezaydi har gul, har giyoh,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Ko‘ngilda konlaring ma‘dan aslida,
Ummon gavharlari maxzan aslida,
Tuprog‘ing, qum-toshing Vatan aslida,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Belbog‘i bulutdan tog‘lar chiroyli,
Xayr-u saxovatli bog‘lar chiroyli,
Oftobli, mohtobli chog‘lar chiroyli,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Soylarda oqadi tip-tiniq tushlar,
Samoning ishq to‘la maktubi — qushlar,
Yellar erkanib yengindam ushlar,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Qamishlar nay bo‘lgan damlaring suyuq,
Cho‘qqilar or kabi muazzam, buyuk,
O‘ngirlarda sakrab o‘ynagan kiyik —
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Ne‘matlar qadrini bilmoq kerakdir,
Asramoq, shukrini qilmoq kerakdir,
Senga sodiq farzand bo‘lmoq kerakdir,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

Dunyoning jannati sen — O‘zbekiston,
Suvlaring jonfizo, jonbaxsh begumon,
Seni obod qilib yashaymiz shodon,
Ey ona tabiat, ona tabiat.

G‘ayrat MAJID


Ta’lim va taraqqiyot

O‘QITUVCHILAR OLIS HUDUDLARDAGI MAKTABLARGA JALB ETILADI

Joriy yil 30-iyuldan 4-avgustga qadar Bo‘stonliq tumanidagi kam ta‘minlangan oilalar farzandlari uchun bolalar ta‘lim-tarbiya oromgohi tashkil etildi. Oromgohda bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ishonchni rivojlantirishga qaratilgan interfaol mashg‘ulotlar hamda mahorat saboqlari o‘tkazildi.

Bunda “Teach For Uzbekistan” nodavlat notijorat tashkiloti yaqindan ko‘mak berdi. 65 mamlakatda yo‘lga qo‘yilgan bu loyiha O‘zbekistonda o‘tgan yili ish boshladi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan iqtidorli yoshlarni tanlab olish, maktab ta‘limini rivojlantirishga ko‘maklashish, yosh mutaxassislar va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini ijtimoiy sharoiti og‘ir maktablarga ishga jalb etishdir.

Tanlov asosida loyihada ishtirok etgan bitiruvchilar joylarda pedagogik faoliyat yuritish barobarida, chekka hududlarning



“Bo‘stonliq tumanida tashkil etilgan oromgohda nomzodlar yangi zamonaviy pedtexnologiyalar, o‘yinlar orqali dars o‘tish, bolalarga emotsional xavfsiz muhit yaratish, bir darsda muayyan bilimni o‘zlashtira olmay qolgan bolalar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirishga e’tibor qaratildi.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ular pedagogik faoliyatdan tashqari, ijtimoiy loyihalarda ham faol ishtirok etadi.

2024-yilda 740 ga yaqin ariza kelib tushgan bo‘lsa, joriy yilda 1074 ta bitiruvchi ariza bilan murojaat qildi. Bo‘lajak 31 o‘qituvchi Surxondaryoning



Termiz, Muzrabot va Qiziriq tumanlariga jo‘natiladi.

— Tanlovda nomzod nima uchun maktabda ishlashni xohlashi, ikki yil dars bera olishiga ishonchi komilligi, qanday ko‘nikmalarga egaligi, qaysi tillarni bilishiga e’tibor qaratiladi, — deydi loyiha rahbari Umida Yo‘ldosheva. — Shuningdek, qadriyatlarini, insoniy fazilatlarini haqidagi tushunchalari o‘rganiladi. Bolalar bilan munosabat o‘rnatish, hududlar bilan ishlashga ochiq, yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Jamoada ishlash, muloqotga kirishish, tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalarini egallashi shart.

Ana shu ko‘nikmalarni qamrab olgan besh bosqichli tanlovdan so‘ng bo‘lajak o‘qituvchilar yakuniy bosqich — “Yozgi institut”da ishtirok etadi. Bu besh haftalik intensiv ta’lim bo‘lib, unda nomzodlar maktabda ishlash uchun tayyorlanadi. Kurs dasturi qator fanlarni o‘rganishni qamrab oladi. Pedagogik mahorat va pedagogika asoslari, bolalar psixologiyasi, xulq-atvori, malaka oshirish usullari, fan bo‘yicha metodistlar bilan ishlash shular jumlasidan.

Bo‘stonliq tumanida tashkil etilgan oromgohda nomzodlar yangi zamonaviy pedtexnologiyalar, o‘yinlar orqali dars o‘tish, bolalarga emotsional xavfsiz muhit yaratish, bir darsda muayyan bilimni o‘zlashtira olmay qolgan bolalar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirishga e’tibor qaratildi.

— Bir oy maxsus dastur doirasida malaka oshirdik, — deydi Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti bitiruvchisi Davlatbek Abduqahhorov. — Xalqaro hamda mahalliy trenerlar, professor-o‘qituvchilar zamonaviy pedagogika sir-asrorini atroflicha o‘rgatdi. Egallagan bilim va ko‘nikmalarimni Surxondaryoning chekka hududlaridagi o‘quvchilar bilimni oshirishda qo‘llamoqchiman. Bolalarning qiziqishi, qobiliyatidan kelib chiqib, mashg‘ulotlarga yondashish, ya’ni o‘zimiz xohlagan vazifani emas, balki o‘quvchilarning qiziqishiga ko‘ra, ta’lim berish bilim olishga rag‘batlantiradi.

Tayyorgarlikning barcha bosqichidan o‘tgan nomzodgina ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, muloqot va yetakchilik ko‘nikmalarini o‘quvchilarga yetkaza oladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri